

## SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA XALQ OG‘ZAKI IJODI AN‘ANALARI

Fayzullayeva Ra‘no Maxmudovna  
NavDPI tayanch doktranti  
[ranofayzullayeva8@gmail.com](mailto:ranofayzullayeva8@gmail.com)  
+998913345146

**Annotatsiya:** Maqolada Sirojiddin Sayyidning folklor asarlaridan ijodiy oziqlanish mezonlari yoritilgan. Shoirning Vatan obrazini yoritishda, vatanparvarlik tuyg‘ularini ifodalashda folklor syujetlaridan, motivlaridan hamda xalq maqollaridan unumli foydalanib, badiiy talqin etilgani tahlilga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** Folklor, syujet, motiv, maqol, badiiy sintez, lirik qahramon, badiiy mahorat.

**Аннотация:** В статье описаны критерии творческого восприятия фольклорных произведений Сироджиддина Сайида. Проанализировано использование поэтом фольклорных сюжетов, мотивов и народных пословиц в качестве описания образа Родины и выражения патриотических чувств.

**Ключевые слова:** Фольклор, сюжет, мотив, пословица, художественный синтез, лирический герой, художественное мастерство.

**Annotation:** The article describes the criteria for creative perception of folklore works by Sirojiddin Sayyid. The poet's use of folklore stories, motifs and folk proverbs as a description of the image of the Motherland and an expression of patriotic feelings is analyzed.

**Key words:** Folklore, plot, motive, proverb, artistic synthesis, lyrical hero, artistic skill.

Vatan mavzusi insoniyat tamaddunining barcha davrlarida badiiylikning asosiy mavzularidan biri sifatida qayd etiladi. Folklor asarlari va qadimgi yozma manbalardayoq Vatan mavzusi yetakchi mavzu hisoblangan. Xalq og‘zaki ijodidagi turli janrlar tarkibiga e‘tibor qaratilsa, xalqimizning orzu-umidlari, Vatan erki va ozodligi tushunchasi teran badiiy talqin etganligi; ezgulik, adolat, haqiqat va shu kabi g‘oyalar ham aslida Vatan obrazini yoritishga, vatanparvarlik tuyg‘ularini ifodalashga xizmat qilayotgani ko‘zga tashlanadi.

Folklordan ijodiy oziqlanish mezonlari, muallifning folklor syujetlaridan, uning motivlaridan, mavzularga ijodiy yondashuvlari mahorat nuqtai nazardan o‘rganilishida ham, qayd qilingan ijodiy ta’sir mavjudligi bilan izohlash mumkin. Chunki syujet va mavzularni badiiy jihatdan qayta ishlanishi o‘ziga xos poetik mahoratni talab etadi. Bu jarayon esa, folklorning yozma adabiyotning taraqqiyotidagi o‘rnidan, ijodiy aloqadorligidan dalolatdir. Adabiyotshunos To‘ra Mirzayev qayd qilib o‘tganidek: “Folklor asarlari ajdodlar va avlodlar jonli aloqasi va vorisligini o‘zida mujassamlashtiradi, xalq ijtimoiy-maishiy hayoti bilan bevosita bog‘langanliklari tufayli har kishiga o‘z xalqi, uning tarixi va kelajagi, istiqboldagi orzu-umidlari bilan vobastalikni his etishga, amaliy faoliyatda esa, yuksak axloqiy ideallarni asos qilib olishga yordam beradi”.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Мирзаев Т. Силсила дostonлар. Қаранг: Гўрўғли. Ўзбек халқ дostonлари. Айтувчи Раҳматилла шоир Юсуф ўғли. – Тошкент, Шарқ, 2006. 3-бет.



Sirojiddin Sayyid xalq og‘zaki ijodining turli janrlaridan asosli va unumli ijodiy an‘analarni yuzaga chiqarishga intilgan. Ayniqsa, xalq maqollarida ilgari surilgan qarashlarni she‘riyatga singdirib yuboradiki, bu ijodkorning poetik mahoratidan dalolatdir:

O‘tar dunyo – biz mehmon,  
Har giyohdan terdik don.  
Biring tansan, biring – jon,  
Baring bo‘lg’in qadrdon.

O‘tar dunyo – biz mehmon,  
Har giyohdan terdik don.  
Eling omon bo‘lganda,  
Yurting ham bo‘lar qo‘rg‘on.<sup>2</sup>

Shoir “El-u yurting omon bo‘lsa, rang-u ro‘ying somon bo‘lmas” maqolidagi asrlar davomida xalq donishmandligi asosida vujudga kelgan qimmatli fikrlarni mahorat bilan misralarga singdiradi. “Do‘mbiradan aytilgan” deb nomlangan bu she‘r aslida Shoberdi baxshiga bag‘ishlangan, ammo undagi kyechinmalarga singdirilgan mazmunning mohiyati juda asosli ifodalangan.

“Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni” maqolidagi ilgari surilgan fikrlarning shoir she‘riy misralaridan o‘rin olishiga e‘tibor qarataylik:

Bulbul yashay olmas chamansiz, ona,  
Inson xor bo‘lgaydir Vatansiz, ona.  
Vatan barchamizga buyuk Onadir,  
Siz buyuk Vatansiz, Vatansiz, ona.<sup>3</sup>

Bulbul chamanzorsiz yashay olmagan kabi inson ham Vatansiz yashashi juda og‘irligiga, Vatan ham Onaday aziz va mo‘tabar ekanligiga urg‘u berilmoqdaki, bu misralar har qanday kitobxonni sergak tortishga, mulohaza qilishga undashi tabiiy holdir.

Sirojiddin Sayyid “Marg bo yoron sur ast” (Do‘stlar bo‘lgan birga bo‘lgan o‘lim to‘ydir), fors maqolidan ham unumli foydalanadi. Bu tushunchani she‘riy misra tarkibiga singdirish natijasida uning o‘ziga xos poetik shakli namoyon bo‘ladi. Lirik qahramonning do‘stlarga, Vatanga muhabbati asosidagi tushunchalar bilan boyitadi. Buning ham o‘ziga xos tarovati, mazmunning shaklga hamohangligi yana-da poetik jozibadorlikni oshiradi:

Podshohlig‘ bir g‘arib ko‘ydir manga,

<sup>2</sup> Саййид С. Асарлар. II жилд. Шеърлар. Достон. Қирқ ҳадис. Ғазал дафтари. Насрий оҳангларда .– Т., Шарқ, 2018. 103-бет.

<sup>3</sup> Саййид С. Асарлар. IV жилд. “Хамса” ҳайратлари. Маърифий достон. Тун билан тонг. Тўртликлар. Шеърлар. Ғазал дафтари. Таржималар. Насрий оҳангларда .– Т., Шарқ, 2018. 86-бет.



Kecha – kunduz g‘urbatu o‘ydir manga.

Ne uchun giryon bo‘lay do‘stlar bilan,

Do‘stlar birlan o‘lim to‘ydir manga.<sup>4</sup>

Darhaqiqat, qayd qilingan misralarda lirik qahramonning ishonchi, do‘stlarda, ular bilar birga bo‘lish barcha qiyinchiliklarni mardonavor yengib o‘tish imkonini kengaytirishiga urg‘u berilgan. Shuningdek, boshqa bir o‘rinda irsoli masaldan unumli foydalangan holda “O‘z uying – o‘lan to‘shaging” xalq maqolini ham badiiy sintezlaydi:

O‘z uying – o‘lan to‘shaging,

Bo‘stoning bor, chamaning bor.

Asrlar kelar yashaging,

Boqib to‘ymas Vataning bor.

Ota-bobong xoki shunda,

Nomus-oring boqiy shunda.

Tog‘u toshing, yeru suving,

Shalolangni o‘zing asra.<sup>5</sup>

Yoki boshqa bir o‘rinda mazkur maqol mohiyati quyidagicha ifoda etiladi:

Eng buyuk baxt – o‘z quyosh, o‘z oying ekan,

O‘z makoning, o‘z uying, o‘z joying ekan.<sup>6</sup>

Sirojiddin Sayyid ijodidan o‘rin olgan Vatan mavzusining naqadar keng qamrovga ega ekanligi, o‘quvchini ijodkor mahorati bilan uzviy bog‘lanishi bilan izohlashga intiladi. Chunki shoirning qalb amri bilan otilib chiqayotgan har bir satrning mazmun mohiyati, lirik qahramonning kechinmalari va badiiy ifodasi – bularning barchasi muallifning mavjud an‘analardan oziqlanishini, Vatan mavzusini ifodalashda esa, o‘ziga xos uslub egasi ekanligini asoslaydi. Bu tushunchalarning zamiridagi qarashlarning barchasi Sirojiddin Sayyidning badiiy mahoratidan dalolatdir.

Adabiyotshunos Q.Yo‘ldoshev qayd qilib o‘tganidek: “Asl haqiqat buzilgan muvozanatdir. Dunyodagi birorta shoir ruhiy muvozanatdan chiqmay turib, hali birorta tuzukroq she‘r yozolgan emas. Muvozanatdan, ya‘ni risoladagi odamlarda bo‘ladigan ruhiy holatdan chiqish har bir ijodkorda o‘zgacha kechadi. Lekin barcha ijodkorlarning ham qalbi yalong‘och, himoyasiz, ro‘y bergan hodisaki bor undan ta‘sirlanadigan bo‘ladi”.<sup>7</sup> Qayd qilinganidek, “asl haqiqat”ni kuylash naqadar murakkab jarayon ekanligini teranroq his eta boshlaymiz.

<sup>4</sup> Саййид С. Асарлар. III жилд. Шеърлар. Достон. Ғазал дафтари. Насрий оҳангларда. –Т., Шарқ, 2019. 231-бет.

<sup>5</sup> Саййид С. Асарлар. IV жилд. “Хамса” ҳайратлари. Маърифий достон. Тун билан тонг. Тўртликлар. Шеърлар. Ғазал дафтари. Таржималар. Насрий оҳангларда. – Т., Шарқ, 2018. 117-118-бетлар.

<sup>6</sup> Саййид С. Асарлар. III жилд. Шеърлар. Достон. Ғазал дафтари. Насрий оҳангларда. –Т., Шарқ, 2019. 410-бет.

<sup>7</sup> Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. Адабий ўйлар. – Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2006. 363-бет.



Shoirning “O‘zbek-turkman manzumasi” she’rida “Yolg‘iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong‘i chiqmas”, “Birlashgan o‘zar, birlashmagan to‘zar” singari xalq maqollarining yozma adabiyotdagi badiiy talqini mahorat bilan yoritiladi:

Yolg‘iz otning dong‘i chiqmayin to‘zar,  
Oqil zotlar Vatan qurib, el tuzar,  
Birlashmagan to‘zar, birlashgan – o‘zar,  
Ahd-u paymonlari turkman, o‘zbekning.<sup>8</sup> (3.340)

“Birlashgan el” she’ridagi mohiyat bundan-da ta’sirchan bo‘lib, bevosita insonlarni birdamlikka, Vatan atrofida jipslashishga undaydi:

Birlashmagan el doim xor bo‘lar, talosh bo‘lar,  
Bunday elning bag‘ri dog‘, ko‘zlarida yosh bo‘lar.<sup>9</sup>

Sirojiddin Sayyid she’riyatiga nazar tashlar ekanmiz, uning lirik qahramonidagi tizginsiz qarashlar, kechinmalar, o‘yu-xayollarning barchasi insonni o‘zligini anglashga imkon beradi. Chunki lirik qahramonning qalb kechinmalarini, botiniy bezovtaligini tasvirlashga intiladi:

El har so‘zni anglab aytar,  
elning so‘zi dur-guhar:  
Yaxshi odam yurt tuzar-u  
yomon odam yurt buzar...  
Bobolaring har hikmatni  
O‘z bag‘rin tilib aytgan,  
Yurtingizni obod qilib  
Yashang deb bilib aytgan.<sup>10</sup>

Shoirning xalq maqollaridan foydalanishi zamirida, olamni teranroq anglashga bo‘lgan intilishni, ularning turfa olamini ifodalash imkonini bergan.

Shoir misralarda ilgari surilgan lirik qahramonning kechinmalari bilan aqllilik qilmaydi, haqiqatni boricha tasvirlashga, xulosani o‘quvchi hukmiga qoldiradi. Shu bilan bir qatorda, inson ruhiyatidagi xususiyatlarni, ulug‘lik va insoniylikni, Vatanning qadrini, uning qudratini birlikda, umumiylikda ko‘radi.

Adabiyotshunos Ulug‘bek Hamdam e’tiroficha, “...she’r davr farzandi. Lekin she’r muayyan bir davrgagina bog‘lanib qolmaydi, shunday she’rlar borki, ular davrlar osha yashaydi. Bunda shoir shaxsi muhim o‘rin tutadi. Chunki shoir individuallik qobig‘ini yorib, shaxslik maqomi sari boshlovchi yo‘lga chiqib olgan

<sup>8</sup> Саййид С. Асарлар. III жилд. Шеърлар. Достон. Ғазал дафтари. Насрий оҳангларда. – Т., Шарк, 2019. 340-бет.

<sup>9</sup> Саййид С. Асарлар. IV жилд. “Хамса” ҳайратлари. Маърифий достон. Тун билан тонг. Тўртликлар. Шеърлар. Ғазал дафтари. Таржималар. Насрий оҳангларда. – Т., Шарк, 2018. 146-бет.

<sup>10</sup> Саййид С. Асарлар. IV жилд. “Хамса” ҳайратлари. Маърифий достон. Тун билан тонг. Тўртликлар. Шеърлар. Ғазал дафтари. Таржималар. Насрий оҳангларда. – Т., Шарк, 2018. 132-бет.



yoki o‘sha maqomga erishgan bo‘ladi. Chunki shaxslik, avvalo, bir kalla baland bo‘lib dunyoga boqishdir, o‘tmish, hozir, kelajakni uzviy bog‘liqlikda va o‘zaro qonuniy aloqadorlikda ko‘ra bilishdir, o‘zlikni ko‘pchilikni manfaati yo‘lida fido qilish va eng muhimi, hayotni qalb amriga muvofiq qurish salohiyatidir”.<sup>11</sup>

Sirojiddin Sayyid shaxsiyati ham ulkan badiiy mohiyatni, uning “yuki”ni ko‘tarib, shaxslik darajasiga ko‘tarila olgan ijodkor ekanligini namoyon qilgan.

Shoir she‘riyatida folklorga xos soddalik, teranlik, poetik tasvirdan oziqlanish, muallifning badiiy ijoddagi o‘zigagina xos bo‘lgan esetik olamini belgilashga xizmat qilgan.

Darhaqiqat, shoir she‘riyatini kuzatar ekanmiz, qalbi uyg‘oq lirik qahramonga xalq og‘zaki poetik ijodining sezilarli ta‘sirini kuzatamiz. Bundan “oziqlangan” shoir lirakasining turfa ohanglarda jilo kasb etganligi yaqqol ko‘rinadi. Iste‘odli shoir Sirojiddin Sayyid an‘analarga ijodiy yondashar ekan, lirik qahramonni xalq ohanglari asosida kuylashga, xalq donishmandligini lirik qahramon xarakteriga singdirishga erishadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Мирзаев Т. Силсила дostonлар. Қаранг: Гўрўғли. Ўзбек халқ дostonлари. Айтувчи Раҳматилла шоир Юсуф ўғли. – Тошкент, Шарқ, 2006. 3-бет.
2. Саййид С. Асарлар. II жилд. Шеърлар. Дoston. Қирқ ҳадис. Ғазал дафтари. Насрий оҳангларда .– Т., Шарқ, 2018. 103-бет.
3. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. Адабий ўйлар. – Тошкент, “Янги аср авлоди”, 2006. 363-бет.
4. Улуғбек Ҳамдам. Янги ўзбек шеърляти. Илмий мақолалар. – Тошкент, “Адиб”, 2012. 36-бет.

<sup>11</sup> Улуғбек Ҳамдам. Янги ўзбек шеърляти. Илмий мақолалар. – Тошкент, “Адиб”, 2012. 36-бет.